

## MAKTUB JANRINING O‘ZBEK ADABIYOTIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

*Narzulloyeva Maftuna Nusratillo qizi, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Rus tili va adabiyoti” kafedrasida o‘qituvchisi, Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi*

## THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE EPISTOLARY GENRE IN UZBEK LITERATURE

*Narzulloyeva Maftuna Nusratillo qizi, Lecturer at the Department of Russian Language and Literature, University of Economics and Pedagogy, Independent Researcher at Karshi State University*

## РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЭПИСТОЛЯРНОГО ЖАНРА В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

*Нарзуллоева Мафтуна Нусратилло кызы, преподаватель кафедры русского языка и литературы Университета экономики и педагогики, независимый исследователь*

*Каршинского государственного университета*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotida maktub janrining tutgan o‘rni va uning badiiy-estetik imkoniyatlari turli davr va yo‘nalishdagi asarlar misolida yoritiladi. Tadqiqotda epistolyar uslubning syujetni rivojlantirish, qahramon ruhiyatini ochish va muallifning badiiy niyatini ifodalashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy adabiyotda maktub janrining transformatsiyasi yangi ko‘rinishda namoyon bo‘lishi ko‘rsatib o‘tiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, maktub janri o‘zbek adabiyotida nafaqat badiiy vosita, balki inson ruhiyatini chuqur anglash, avlodlar o‘rtasidagi ma‘naviy bog‘liqlikni saqlash va zamonaviy jamiyat muammolarini aks ettirish imkonini beruvchi muhim estetik fenomen hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek nasri, maktub janri, badiiy tasvir, qahramon xarakteri, epistolyar adabiyot, kompozitsiya.

**Abstract:** This article examines the role of the epistolary genre in Uzbek literature and its artistic and aesthetic potential through the examples of works from different periods and literary trends. The study analyzes the function of the epistolary style in plot development, revealing the inner world of characters, and expressing the author's artistic intention. It also highlights the transformation of the letter genre in modern literature and its emergence in new forms. The analysis shows that the epistolary genre in Uzbek literature serves not only as a literary device but also as an important aesthetic phenomenon that enables a deeper understanding of human psychology, preserves spiritual connections between generations, and reflects contemporary social issues.

**Keywords:** Uzbek prose, epistolary genre, artistic representation, character development, epistolary literature, composition.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль эпистолярного жанра в узбекской литературе и его художественно-эстетические возможности на примере произведений различных эпох и направлений. В исследовании анализируется значение эпистолярного стиля в развитии сюжета, раскрытии внутреннего мира героя и выражении художественного замысла автора. Также показана трансформация жанра письма в современной литературе и его проявление в новых формах. Анализ показывает, что эпистолярный жанр в узбекской литературе является не только художественным средством, но и важным эстетическим феноменом, позволяющим глубоко осмыслить человеческую психологию, сохранить духовную связь между поколениями и отразить актуальные проблемы современного общества.

**Ключевые слова:** узбекская проза, эпистолярный жанр, художественное изображение, характер героя, эпистолярная литература, композиция.



<https://orcid.org/0009-0001-1614-4039>

e-mail:  
maftunshohnur@gmail.com



**Kirish.** Epistolyar uslub adabiyotning nozik hissiy kechinmalarni yoritib beruvchi bir qurol hisoblanadi. Uning shakli asrlar mobaynida takomillashib, nafaqat o‘zbek balki jahon adabiyotini ham yanada betakror qirralarini ochib kelmoqda. O‘zbek nasrida ushbu yo‘naloshning ilk qadamlari jadidchilik davrlariga to‘g‘ri keladi va badiiy adabiyotda turli xil vazifalarni bajaruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek mumtoz adabiyotida maktublar ko‘proq tarixiy va shaxsiy yozishmalar shaklida uchrasa, zamonaviy adabiyotda ular badiiy kompozitsiyaning muhim unsurlaridan biriga aylangan. Ba‘zi asarlarda asarning asosini maktublar tashkil etish holatlarini ham ko‘rish mumkin. Ayniqsa, maktub orqali qahramonning ichki dunyosini ochish, uning ruhiy holatini ifodalash imkoniyati kengaygan.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, o‘zbek adabiyotida maktub janrining o‘rni va vazifasini ilmiy jihatdan asoslanishidir.

**Metodologiya.** Ushbu ilmiy maqolada kompleks yondashuv asosida tahliliy, narratologik, intertekstual, diskursiv va stilistik metodlardan foydalanildi.

**Natijalar.** Tahlillar orqali quyidagicha ilmiy xulosalarga kelindi: o‘zbek nasrida maktublar qahramon ruhiyatini ochuvchi muhim, ya‘ni his-tuyg‘ularning samimiy ravishda namoyish etilishini ta‘minlovchi vosita. U orqali qahramon ichki dunyosini teran anglash mumkin va asarga nisbatan realistiklikni, ishonchlilikni oshirishga erishiladi.

Bundan tashqari badiiy adabiyotda epistolyar texnikaning qo‘llanilishi orqali muallif pozitsiyasi ifodalanadi va kompozitsion vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

**Muhokama.** Maktub janrining o‘zbek adabiyotidagi o‘rni ko‘p qirrali va funksiyalidir. U badiiy tasvir vositasi sifatida syujetni boyitadi, qahramonlarning harakatlar dinamikasini kuchaytiradi, voqealar rivojiga yangi yo‘nalishlar kirgizadi. Shuningdek epistolyar uslubning asarlarda qo‘llanilishi psixologik tahlilni chuqurlashtiradi. Qahramon maktub yozish jarayonida o‘zining to‘liq ichki holatini ochib berishga, yuzma yuz holatdagi yashirin kechinmalarini maktub orqali ifodalashga intiladi. Bu es o‘quvchiga qahramonning ichki dunyosini yana ham chuqur anglashga yordam beradi va mutoala jarayonida maktub orqali adibning yashirin imkoniyatlari va maqsadlarini uchratish har bir kitobxonni jalb qiladi.

Jadidchilik davrining yorqin namunasi Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” asarida epistolyar uslubning naqadar nafislik bilan qo‘llanilishini ko‘rishimiz mumkin. Bunda maktub asar syujetini harakatlantirib boruvchi, tugunlarni yechuvchi, inson shaxsiyatini aslidagidanda go‘zalroq qilib ochib beruvchi kompozitsion vosita sifatida namoyon bo‘lgan. Shu bilan birgalikda asar davomida Otabek va uning otasi Yusufbek Hoji o‘rtasidagi maktublarda xonlik davridagi siyosiy jarayonlar, urf-odatlar va shaxsiy erkinlikning o‘zaro to‘qnashuvining estetik nozik jumlalar bilan bitilishini, Kumushbibining Otabekka yo‘llagan maktublarida milliylikning, ayol nafosati va sadoqatini aks ettirilishini, hamda ushbu maktublarning ijobiy yoki salbiy voqealar rivojiga ta‘sir kuchini ko‘rishimiz mumkin.<sup>1</sup> Qodiriy ushbu romanda o‘zining pozitsiyasini va xalqqa murojaatini ham keltirib o‘tgan. “O‘tgan kunlar” romanida klassik realistik uslubda sharqona muloqot odobi va nafosati tasvirlangan.

O‘lmas Umarbekovning “Qizimga maktublar” asari o‘zbek adabiyotida epistolyar janrning yuksak namunalaridan biri sifatida alohida e‘tiborga loyiqdir. Ushbu asarda maktub shakli nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki ma‘naviy-axloqiy tarbiyaning samarali shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif otaning qiziga yo‘llagan maktublari orqali hayotiy tajriba, axloqiy qadriyatlar va ruhiy kamolotga doir muhim fikrlarni ifodalaydi. Shu jihatdan asar didaktik xarakterga ega bo‘lib, unda nasihat va o‘git yetakchi o‘rin egallaydi. Asarda otaning farzandiga bo‘lgan mehr-muhabbati, uning kelajagi uchun chuqur qayg‘urishi va mas‘uliyat hissi yaqqol aks etadi. Har bir maktubda ota o‘zining hayotiy kuzatuvlari, xulosalari va tajribasini qiziga yetkazishga intiladi. Bu jarayonda u nafaqat ota sifatida, balki murabbiy va donishmand inson sifatida ham namoyon bo‘ladi. Maktublar orqali berilgan fikrlar yosh avlodni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, ularni ma‘naviy barkamollikka undashga xizmat qiladi<sup>2</sup>. Asarda avlodlar o‘rtasidagi ma‘naviy uzviylik masalasi muhim o‘rin tutadi. Ota o‘z qarashlari va qadriyatlarini qiziga yetkazish orqali ma‘naviy merosni davom ettirishga intiladi. Bu esa epistolyar shaklning nafaqat individual, balki ijtimoiy ahamiyatini ham ko‘rsatadi. Maktublar orqali avloddan-avlodga o‘tuvchi axloqiy me‘yorlar, hayotiy tamoyillar va insoniy qadriyatlar mustahkamlanadi.

Asarning uslubiy xususiyatlariga e‘tibor qaratilganda, unda lirik-psixologik, samimiy va o‘git

<sup>1</sup> Qodiriy Abdulla. O‘tgan kunlar. – T.: “Yangi asr avlodi”. – B. 48-120.

<sup>2</sup> Umarbekov O‘lmas. Qizimga maktublar. – T.: Turon zamin ziyo, 2023. – B. 11-109.

beruvchi ohang ustunligi kuzatiladi. Muallifning tili sodda, ravon va ta'sirchan bo'lib, o'quvchida ishonch va samimiyat hissini uyg'otadi. Aynan shu samimiylik maktublarning ta'sir kuchini oshiradi va ularni oddiy nasihatdan ko'ra chuqurroq badiiy hodisaga aylantiradi. Ushbu asar o'zbek adabiyotida maktub janrining tarbiyaviy va estetik imkoniyatlarini yorqin namoyon etuvchi muhim manba sifatida baholanishi mumkin.

Yana bir o'zbek adabiyoti namunasi Olim Otaxonning "Javobsiz maktublar" asarida maktub shakli an'anaviy kommunikativ vazifadan chiqib, chuqur falsafiy va psixologik mazmun kasb etadi. Xususan, "javobsiz" maktublar obrazli tarzda ruhiy yolg'izlik, begonalashuv va insonning o'z-o'zidan uzoqlashuvi kabi ekzistensial muammolarni ifodalovchi metaforaga aylanadi. Bunda qahramon maktublari aslida muayyan bir adresatga emas, balki ko'proq o'z ichki "men"iga yo'naltirilgan. Bu esa epistolyar shaklni o'ziga xos ichki monolog darajasiga olib chiqadi. Natijada, matnda o'zi bilan o'zi muloqot qiluvchi, javobsiz qolayotgan, nostalgik kayfiyatga yo'g'rilgan bitiklar yuzaga keladi. Ushbu holat qahramon ruhiyatidagi iztirob, tushunilmaslik va ma'naviy izlanish jarayonini yanada chuqurroq ochib beradi. Shuningdek, asarda shaxsning ichki parchalanishi, ruhiy beqarorlik, shubha va iztirob motivlari yetakchi o'rin tutadi. Qahramon o'zini jamiyatdan ajralgan, begona his etadi va bu holat uning maktublarida fragmentar, uzilib-uzilib boruvchi fikrlar orqali ifodalanadi. Shu jihatdan, asar zamonaviy inson ruhiyatidagi murakkabliklarni, ayniqsa, kommunikatsiya inqirozi va insonlar o'rtasidagi begonalashuv muammosini badiiy jihatdan yoritadi<sup>3</sup>.

"Javobsiz maktublar" asarining uslubiy xususiyatlari e'tiborga molikdir. Unda modernistik tafakkur, ong oqimiga yaqin ifoda usuli hamda parchalangan matn qurilmasi ustunlik qiladi. Maktublar ketma-ketligi an'anaviy mantiqiy izchillikka emas, balki ichki hissiy oqimga bo'ysunadi. Bu esa matnga o'ziga xos erkinlik va chuqur psixologizm baxsh etadi.

Zamonaviy adabiyotda maktub janri transformatsiyaga uchrab, elektron yozishmalar, kundaliklar va xabarlar shaklida davom etmoqda. Bu esa epistolyar uslubning yashovchanligini ko'rsatadi. Bunga eng mos namuna sifatida Iqbol Mirzoning

"Bonu" asarini olish mumkin. Asarning asosini maktublar tashkil qiladi va maktublar hozirgi zamonaviy gadjetlar orqali qilingan "sms" shaklidagi muloqotdir. Ushbu asarda qahramon, ya'ni Bonu ismli qizning hayoti va undagi kechinmalar sms tarzida ifodalanadi. Yuborilgan xabarlar Bonuning his-tuyg'ularini, uning ko'nglidagi o'tmish jarohatlarini, insonlarning o'zaro munosabatlaridagi tasvirlarni, kelajakka umidini ko'rsatib beruvchi vositalar hisoblanadi va uning ishonchliligini oshiradi<sup>4</sup>.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, o'zbek adabiyotida maktub shaxsiy, shu bilan birgalikda umummilliy ahamiyatga ega bo'lgan g'oyaviy-ijtimoiy vazifalarni ham bajaradi. Maktub janri o'zbek adabiyotida muhim badiiy va estetik funksiyani bajaradi. U shunchaki axborot almashish vositasigina bo'lib qolmay, balki asardagi ma'lum qahramonlarning psixologik holatini ko'rsatib beruvchi, syujetni harakatlantiruvchi detal sifatida o'z vazifasiga ega badiiy vosita hisoblanadi. U qahramon ruhiyatini ochishda, asar kompozitsiyasini boyitishda va o'quvchi bilan emotsional aloqa o'rnatishda nozik ko'priklar sanaladi. Ushbu yuqorida keltirilgan o'zbek badiiy asarlari, ya'ni Qodiriyning "O'tgan kunlar", Umarbekovning "Qizimga maktublar", Iqbol Mirzoning "Bonu", Olim Otaxonning "Javobsiz maktublar" nomli ishlarida epistolyar uslubning turli vazifalarda qo'llanilishini batafsil tushunishimiz mumkin. Kelgusida maktub janrini yanada chuqur o'rganish, ayniqsa zamonaviy adabiyotdagi maktublarning asl transformatsiyasini tahlil qilish ilmiy jihatdan muhimdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Отахои Олим. Жаовбсиз мактублар. - Т.: Янги асп авлоди, 2025.
2. Umarbekov O'lmas. Qizimga maktublar. - Т.: Turon zamin ziyo, 2023.
3. Qodiriy Abdulla. O'tkan kunlar. -Т.: Yangi asr avlodi.
4. Mirzo Iqbol. Bonu. - Т.: Factor Books, 2022.
5. Karimov N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 2010.
6. Qo'shjonov M. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
7. Umurov H. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: Sharq, 2012.

<sup>3</sup> Отахои Олим. Жаовбсиз мактублар. – Т.: Янги асп авлоди, 2025.- В.24-80.

<sup>3</sup> Mirzo Iqbol. Bonu. – Т.: Factor Books, 2022. – В.288